



**20
25**

MUZEYSHUNOSLIK XXI ASRDA:
TADQIQOTLAR, AN'ANALAR VA INNOVATSIYA
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari
to'plami



Mas'ul muharrirlar:

Jannat Ismailova, tarix fanlari doktori, professor

Alisher Ismailov, tarix fanlari doktori(DSc), professor.

Larisa Levteyeva, tarix fanlari nomzodi, kat.i.x.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi tahrir hay'ati:

Jamshid Peremkulov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Mansur Safoev – ilmiy xodim.

Taqrizchilar:

T.f.d., prof. B.V.Xasanov, t.f.n., kat.i.x. X.Fayziyev

Mas'ul muharrirlar: J.X.Ismailova, A.F.Ismailov, L.G.Levteyeva; O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi. «Muzeysunoslik XXI asrda: tadqiqotlar, an'analar va innovatsiya» mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. –Toshkent, 2025-yil 20-oktabr. - 530 b.

Konferensiya Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug'iga asosan tashkil etilgan.

Mazkur to'plamdan aynan xalqaro darajada muzeylar boshqaruvi, muzey rebrendingi, muzey menejmenti va marketingi, turizm sohasida faoliyat yuritishning umumiy asoslari kabi masalalar qamrab olindi. Ushbu tadqiqotlar negizida muzeylar faoliyatini boshqarish va rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, muzey ashyolari va kolleksiyalarini ilmiy tadqiq etish, ularni elektron katalogga kiritish, muzey reklamasi va imidjini shakllantirish, muzeylarni turistik marshrutlarga kiritish, muzey predmetlarini hisobga olish va qayd etish jarayonlari kabi muhim tadqiqotlar qamrab olindi.

To'plam tarkibidan o'rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o'zida aks ettiradi.

To'plam O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi Ilmiy kengashining 2025-yil 07-noyabrda 14-son majlis qarori asosida nashrga (electron) tavsiya etilgan.

© O'z R FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, 2025.

zarur. Bu loyihalarning amalga oshirilishidagi muvaffaqiyatni oshiradi va madaniy merosning uzluksizligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, nomoddiy madaniyatni saqlash va rivojlantirishda arxitektura loyihalash va muhandislik grafikasining integratsiyalangan yondoshuvi milliy madaniyatni kelajak avlodlarga yetkazishda mustahkam zamin yaratadi hamda madaniy merosni barqaror saqlashga katta hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR:

1. Chaudhary, N., Raj, M., Bhattacharjee, R., Srivastava, A., Sah, R., & Badoni, P. (2024). AipanVR: A Virtual Reality Experience for Preserving Uttarakhand's Traditional Art Form. <https://arxiv.org/abs/2404.12643>.
2. Liu, Y., Williams, R. M., Xie, G., Wang, Y., & Zuo, W. (2024). Promoting the Culture of Qinhuai River Lantern Shadow Puppetry with a Digital Archive and Immersive Experience. <https://arxiv.org/abs/2410.03532>.
3. Wang, H., Du, J., Li, Y., Zhang, L., & Li, X. (2024). Grand Challenges in Immersive Technologies for Cultural Heritage. <https://arxiv.org/abs/2412.02853>.
4. Fakhriddinov, M. (2023). Muhandislik grafikasi o'qitish metodikasida innovatsiyalardan foydalanish. Naqshiy Impuls jurnali. <https://nauchniyimpuls.com/index.php/nauch/article/view/14>

Etnografik meros va muzeyshunoslik: O.A. Suxareva tadqiqotlarida urf-odatlar, an'analar va kashtachilik san'ati tahlili.

To'raeva Guli Bahriddinovna – Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi.

Qisqacha mazmuni. Maqolada O.A. Suxarevaning urf-odatlar, marosimlar va kashtachilik san'ati bo'yicha tadqiqotlari etnografik meros va muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Suxarevaning ilmiy qarashlari "O'zbekistonning madaniy merosi" xalqaro loyihasi faoliyati bilan qiyosiy o'rganiladi. Ushbu yondashuv orqali xalq amaliy san'ati namunalari — so'zana, gilam va kashtachilik buyumlarining ilmiy tasnifi, muzey kolleksiyalarida saqlanishi va xalqaro miqyosda tadqiq etilishi jarayonlari yoritiladi. Maqola natijalarida O.A. Suxarevaning ilmiy merosi va bugungi loyihalar o'rtasidagi ilmiy-metodik uzviylik ko'rsatilib, milliy merosni asrab-avaylash hamda uni jahon madaniy kontekstida tadqiq etishning ilmiy asoslari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: etnografik meros, muzeyshunoslik, O.A. Suxareva, urf-odatlar, marosimlar, kashtachilik san'ati, xalq amaliy san'ati, so'zana, gilam, "O'zbekistonning madaniy merosi" loyihasi.

Abstract. The article analyzes O.A. Sukhareva's research on customs, rituals, and embroidery art from the perspective of ethnographic heritage and museology. The study compares Sukhareva's scholarly views with the activities of the international project "*The Cultural Heritage of Uzbekistan*." This approach highlights the processes of scientific classification of folk applied art samples — suzani, carpets, and embroidery works — their preservation in museum collections, and their examination at the international level. The results demonstrate the scholarly and methodological continuity between O.A. Sukhareva's academic legacy and current projects, while also identifying the foundations for preserving and studying national heritage within the global cultural context.

Keywords: ethnographic heritage, museology, O.A. Sukhareva, customs, rituals, embroidery art, folk applied art, suzani, "Cultural Heritage of Uzbekistan" project.

Аннотация. В статье анализируются исследования О.А. Сухаревой, посвящённые обычаям, обрядам и вышивальному искусству народов Бухары и других регионов Узбекистана, в контексте этнографического наследия и музееведения. Научные подходы Сухаревой сопоставляются с деятельностью международного проекта «Культурное наследие Узбекистана», что позволяет выявить как методологическую преемственность, так и новые тенденции в сохранении и изучении этнографических коллекций. В результате подчёркивается научная новизна исследования: раскрыта роль этнографических источников в современном музееведении, определены принципы их систематизации и интерпретации в мировом культурном контексте.

Ключевые слова: этнографическое наследие, музееведение, О.А. Сухарева, обычаи, обряды, вышивальное искусство, народное прикладное искусство, сюзане, проект «Культурное наследие Узбекистана».

Kirish. Muzeý — bu madaniy, ilmiy, tarixiy yoki badiiy ahamiyatga ega bo‘lgan artefaktlarni yig‘ish, saqlash, tadqiq qilish va namoyish etishga mo‘ljallangan ijtimoiy-madaniy muassasa hisoblanadi. Ko‘pgina muzeylarda keng jamoatchilik uchun ochiq ko‘rgazmalar mavjud bo‘lsa, ayrimlari faqat mutaxassislar va tadqiqotchilar foydalanishi mumkin bo‘lgan maxsus kolleksiya­larga ega.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi muzeylar, arxivlar, kutubxonalar va xususiy kolleksiya­larda Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston tarixi va madaniyati bilan bog‘liq noyob eksponatlar saqlanmoqda.

2015 yilda o‘zbek jurnalisti va jamoat arbobi Firdavs Abduhalikov O‘zbekistonning madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha “O‘zbekistonning madaniy merosi” xalqaro notijorat loyihasini yaratdi [22]. Tariximiz xabarchisi bo‘lgan noyob eksponatlarni tadqiq etish, hujjatlashtirish va keng ommaga taqdim etishga bag‘ishlangan ushbu ilmiy-ma‘rifiy loyiha muhim ahamiyatga ega . Loyiha asosida nashrlar turkumini tayyorlash va chop etish bilan “O‘zbekistonning madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Jahon jamiyati” shug‘ullanadi. Ushbu jamiyatning asosiy vazifasi — xalqimizning ko‘p asrlik moddiy va ma‘naviy boyliklarini ilmiy asosda o‘rganish, xalqaro ilmiy hamjamiyat e‘tiboriga havola qilish va jahon madaniy merosida munosib o‘ringa ega bo‘lishdan iborat. Loyiha doirasida yuzlab ilmiy-ma‘rifiy albomlar chop etilgan bo‘lib, ular O‘zbekiston tarixiy yodgorliklari, san‘at namunalari, qo‘lyozmalari, tangalar, etnografik buyumlar va boshqa madaniy eksponatlarni qamrab oladi.

2016 yilda respublikamizda O‘zbekiston madaniy merosi ob‘ektlarini kataloglashtirish bo‘yicha yirik nashriyot loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu jarayonda Rossiya, Turkiya, Fransiya, AQSh, Kanada, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya, Polsha, Chexiya, Hindiston, Malayziya kabi ko‘plab davlatlarning yirik muzeylari, kutubxonalari va ilmiy muassasalari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. Loyihaga xalqaro miqyosdagi yuzlab olim va mutaxassislar jalb etildi, ularning ilmiy hissasi natijasida to‘plangan materiallar asosida 2023 yilga kelib 60 jild­dan iborat rasmlı kitob-albomlar nashr etildi [23].

Nashr qilingan II jild Sankt-Peterburgdagi Rossiya etnografik muzeyi to'plamiga bag'ishlangan bo'lib, unda O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hayoti bilan bog'liq qimmatli artefaktlar o'rin olgan [23]. Mazkur to'plamning eng qimmatbaho namunalari Buxoro amirlarining saroy ustaxonalarida yaratilgan. Bu buyumlar orasida XIX asrning oxirlarida, xususan, 1890-yillar atrofida Rossiyaga olib kelingan to'qimachilik mahsulotlari, tantanali sovg'a sifatida tayyorlangan qurollar, ot jabduqlari, zargarlik buyumlari mavjud. Albomda shuningdek, o'zbek, qoraqalpoq, O'rta Osiyo arablari va Buxoro yahudiylari kabi turli etnik guruhlarga mansub xalq ustalari tomonidan mahalliy bozorlar uchun ishlab chiqarilgan buyumlar ham keng yoritilgan. Bular jumlasiga oshxona anjomlari, kiyim-kechak elementlari, to'y marosimlariga oid buyumlar kiradi. Ushbu ashyolar faqatgina eksponat jihatidan emas, balki xalqning urf-odatlarini, turmush tarzini ifodalash vositasi sifatida ham tarixiy-madaniy manba ahamiyatiga ega.

Kitob-albomning IV jildi Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonning kashtachilik va gilamchilik san'atiga bag'ishlangan. Bu jildga XIX–XX asrlarda yaratilgan eng yorqin va qimmatli eksponatlar kiritilgan bo'lib, ular dunyoning oltita yirik muzeyi hamda beshta xususiy kolleksiyadan tanlab olingan. Albomda, avvalo, Honolulu (AQSh) shahrida joylashgan Shangri-La Islom san'ati, madaniyati va dizayni muzeyidagi so'zana namunalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu kolleksiya mashhur amerikalik kolleksioner Doris Dyuk (1912–1993) tomonidan to'plangan bo'lib, unda O'zbekistonning kashtachilik an'analari yorqin ifodasini topgan [23]. Shuningdek, albomda:

- Rossiya etnografik muzeyi (Sankt-Peterburg) to'plamidagi o'zbek va qoraqalpoq kashtachilik namunalari;
- Kanada to'qimachilik muzeyi kolleksiyasidagi O'rta Osiyo gilam va kashta buyumlari;
- Avstraliya Pauerxaus muzeyi fondlarida saqlanayotgan o'zbek gilamchilik san'atiga oid asarlar;
- britaniyalik tadqiqotchilar Syu va Devid Richardsonlarning shaxsiy kolleksiyasidagi qoraqalpoq san'ati buyumlari keng yoritilgan.

Mazkur jildga O'zbekistonning xalq amaliy san'ati, xususan, so'zana (kashta), gilam to'qish va boshqa bezak san'ati turlarining xalqaro miqyosdagi nufuzini ko'rsatadigan nodir namunalar jamlangan.

Buxoro va Samarqand milliy an'anaviy kashtado'zligi va so'zanalarning nodir namunalarini Samarqand muzeyida jamlagan jonkuyar muzey xodimasi Olga Aleksandrovna Suxareva hisoblanadi. Olimaning ilmiy hayoti va mehnat faoliyati shunchalik serqirra va chuqur izlanishlarga boyki, uning 1968–1983 yillar oralig'ida Rossiya Fanlar akademiyasi tarkibidagi N. N. Mikluxo-Maklay nomidagi Etnografiya institutidagi faoliyati alohida e'tiborga loyiqdir. Bu davr Suxarevaning ilmiy izlanishlarida uslubiy yetuklik va xalqshunoslik doirasida yangi yondashuvlarning qaror topgan bosqichi sifatida tavsiflanadi.

1968 yildan boshlab O. A. Suxareva Moskvadagi N. N. Mikluxo-Maklay nomidagi Etnografiya institutida katta ilmiy xodim sifatida faoliyat olib bordi. Mazkur institut Sovet Ittifoqida millatlararo munosabatlar, xalqlar tarixi va

etnologik tadqiqotlar bo'yicha yetakchi ilmiy markaz bo'lib, O. A. Suxareva bu muassasada O'rta Osiyo shahar madaniyati, ayniqsa, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlardagi hunarmandchilik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixini chuqur o'rganishda davom etdi.

Bu davrda O. A. Suxareva "Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlarining tarixiy-etnografik atlası"dagi "Milliy kiyimlar" bo'limini tayyorlash ishlarida rahbarlik qildi. Bu tadqiqotda O. A. Suxarevaga N. P. Lobacheva yaqindan yordamlashdi. Bunda o'zbek, tojik, turkman, qozoq va boshqa xalqlarning an'anaviy kiyim elementlarini tasniflash, tavsiflash va kartografik xususiyatlarini aks ettiruvchi atlas tayyorlandi[1,144].

O. A. Suxareva O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston respublikalaridagi etnograf olimlar ilmiy faoliyatini markazlashtirdi. U o'z atrofida Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi bilan shug'ullanuvchi yetuk tadqiqotchilar jamoasini shakllantirdi. Uning rahbarligida olib borilgan tadqiqotlar orasida, ayniqsa, N. P. Lobachevaning ishlarini alohida qayd etish mumkin [2,84]. N. P. Lobacheva turli urf-odatlar, ayniqsa, nikoh va to'y marosimlari bilan bog'liq tarixiy an'analarni hamda ularning shakllanish tarixini chuqur o'rgangan. Ushbu tadqiqotlar keyinchalik Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnologiyasini o'rganilishida muhim ilmiy manbalar sifatida tan olingan.

1968–1983 yillar mobaynida O.A. Suxareva Markaziy Osiyo xalqlarining, xususan, O'zbekiston hududidagi o'zbek va tojiklarning hunarmandchiligi va kundalik hayoti bo'yicha materiallar ustida faol ilmiy ish olib bordi. Ushbu tadqiqotlar institut olimlari tomonidan tayyorlangan O'zbekiston tarixi haqidagi monografiyada keng yoritildi. Monografiyada Suxarevaning 42 betdan iborat matni o'zining ilmiy-professional darajasi va noyobligi bilan alohida ajralib turdi [3,174-201].

1969 yilda O. A. Suxareva A. L. Troitskaya bilan hamkorlikni davom ettirdi. A. L. Troitskayaning 1920-1950 yillarda chop etilgan maqolalari, jumladan, Turkistonning mahalliy aholisining milliy san'ati va Sharq xalqlarining madaniy tarixi bo'yicha ilmiy ishlari va birgalikdagi tadqiqotlari Sharq xalqlari etnografiyasida yangi ilmiy natijalar uchun zamin yaratdi.

1970 yilda O. A. Suxareva Samarqand va Buxoro shaharlarining tarixi bo'yicha tadqiqotlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida maqolalar yozishni boshladi. Ushbu maqolalar Buxoro shahri va uning kvartallar (guzar) bo'linishi haqidagi ishlariga asos bo'ldi. 1970 yilda u Markaziy Osiyo kiyimlari mavzusida[4,101-112], 1971 yilda esa hunarmandchilikda metall quyish usullari haqida maqolalar chop etdi [5,147-167]. 1974 yilda esa Bartold o'qishlarida Markaziy Osiyo shaharlari kvartallari haqida ma'ruzasi bilan chiqdi[6,51-53].

1976 -1979 yillarda O. A. Suxareva shaharlarning tarixi, aholisi, an'analari, urf-odatlari, milliy kiyimlari hamda hunarmandchilik bilan bog'liq tadqiqotlarni olib bordi. Samarqand muzeyi bilan hamkorlikda u Markaziy Osiyo xalqlarining bezakli tikuvchilik san'ati tarixini tadqiq etdi.

1970-yillarda institut uchun tayyorlangan «Markaziy Osiyo xalqlarining kiyimlari» to'plamida Suxareva 1930-yillarda yig'ilgan tadqiqot materiallarini qayta tahlil qilib, ilmiy muomalaga kiritdi. U Samarqand tojik va o'zbeklarining

to'y marosimlaridagi kiyimlarini taqqoslab, shuningdek, boshqa hududlardagi kiyim madaniyati an'analarini solishtirdi.


1976 yilda uning «Очерки по истории среднеазиатских городов» maqolasi «История и культура народов Средней Азии. Древность и средние века» ilmiy to'plamida chop etildi [7,132-148].



O. A. Suxarevaning ilmiy faoliyati oxirgi yillarda faqat bir mintaqa bilan cheklanmay, kengroq maydonda davom etdi. Masalan, 1979 yilda «Nauka» jurnalida uning «O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharqdagi tovar-pul munosabatlari» nomli maqolasi chop etildi. Ushbu maqola tarixiy yo'nalishda bo'lib, unda O. A. Suxareva nazariya orqali o'sha davrning ayrim ilmiy masalalariga yangi yondashuvlar taklif qildi.

1980 yilda «Yaqin va O'rta Sharq» nomli to'plamda O. A. Suxarevaning «Участие Женщины в товарном производстве тканей и одежды у равнинных таджиков в конце XIX – начале XX в. » (*XIX–XX asr boshlarida voha tojik ayollari va ularning mato hamda kiyim ishlab chiqarishdagi roli*) nomli maqolasi nashr etildi [10,203-212]. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanishi natijasida, an'anaviy kasb-hunar va turmush tarzining sezilarli darajada o'zgarishga uchrashi, jamiyatda shahar va qishloq aholisi turmushining tubdan yangilanishiga oid jarayonlarni tahlil qildi.

1981 yilda olim N. Isaeva-Yunusovanning «Tojik kashtalari» kitobi uchun «Sovet etnografiyasi» jurnalida ilmiy sharh yozdi [11,151-158]. Markaziy Osiyo xalqlarining kashtachilik san'ati — bu O. A. Suxareva qiziqqan ilmiy mavzularidan biri bo'lib, uning bu sohadagi nufuzini yanada mustahkamladi. Shuning uchun uning mazkur kitobga bildirgan ijobiy bahosi ilmiy jamoatchilik uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, 1981 yilda O. A. Suxareva «Таджикская вышивка» nomli maqolasini «История и этнография Средней Азии» to'plamida chop etdi. 1982 yilda u Samarqand aholisining XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlaridagi milliy kiyim-kechak tarixiga bag'ishlangan fundamental asarini nashr etdi [13,67-69].



O. A. Suxarevaning so'nggi maqolasi «Sovet etnografiyasi» jurnalida uning vafotidan keyin e'lon qilindi. Ushbu maqolada u Samarqand aholisi bezakli kashtalaridagi naqshlarni, ularning xalq e'tiqodlari va tasavvurlari bilan bog'liqligini batafsil tahlil qildi.

O. A. Suxareva 1983 yil 22 yanvarda Moskva shahrida vafot etdi va boy ilmiy meros qoldirdi. Uning "So'zanalar. Markaziy Osiyo bezakli kashtachiligi" nomli monografiyasi 2006 yilda nashr etildi [14]. Ushbu qo'lyozma olimaning vafotidan bir oz oldin yakunlanib, ilmiy ko'rikdan o'tkazish uchun topshirilgan edi. Monografiya Samarqand aholisi milliy kiyimi va bezakli kashtalari tarixi bo'yicha uning uzoq yillik tadqiqotlarining yakuniy natijasi sifatida e'tirof etiladi.

«Сузани. Среднеазиатская декоративная вышивка» О. А. Suxarevaning “So‘zanalar. O‘rta Osiyo dekorativ kashtado‘zligi” nomli asari 2006 yilda monografiya sifatida nashr etildi.

Markaziy Osiyo liboslari va bezaklari tarixi , ayniqsa, Samarqand vohasi aholisining kashtado‘zlik san’ati namunalari kolleksiyasi asardan joy olgan. Monografiyada tojiklar uchun muqaddas ma’noga ega bo‘lgan to‘y kashtachiligi – so‘zanalarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. O. A. Suxareva so‘zanalar tadqiqining asoschisi hisoblanadi. So‘zana san’atining shakllanish bosqichlari, rivojlanish dinamikasi va hududiy xususiyatlari ko‘rsatilgan.

Xulosa. O. A. Suxareva haqli ravishda universal olima hisoblanadi, u tengsiz ravishda etnograf va tarixchi-sharqshunos, muzeyshunos, tojik tili bo‘yicha filolog –mutaxassis, san’atshunos, dinshunos sifatida tan olingan.

1934 - 1946 yillarda Samarqandda madaniyat va san’at davlat muzeyida faoliyat yuritdi. Bu davrda O. A. Suxareva muzey fondini , asosan, kashtado‘zlik kolleksiyasi, kiyimlar va to‘quvchilik buyumlari bilan boyitishda faol qatnashdi. Uning mehnati samarasi o‘laroq Samarqand muzeyi eng mukammal o‘zbek va tojik kashtado‘zlik kolleksiyasi to‘plangan muzeyga aylanadi. Aynan mana shu kashtado‘zlikni tahlil qilish maqsadida O. A. Suxareva kashtado‘zlik tarixi va texnikasini o‘rgandi.

O.A. Suxarevaning Moskva shahridagi ilmiy faoliyati nafaqat O‘rta Osiyo shaharlari tarixini chuqur yoritishda, balki o‘z davrida etnografiya ilmiy maktabining metodologik asoslarini shakllantirishda ham alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Лобачева, Н. П. К истории сложения института свадебной обрядности (на примере свадебных обычаев и обрядов Средней Азии и Казахстана) [Текст] / Н. П. Лобачева // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – 1978. – С. 144-175.
2. Лобачева, Н. П. Народная одежда как источник по этногенезу. К вопросу об этногенетических связях народов Средней Азии и Казахстана [Текст] / Н. П. Лобачева // Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1991. – Вып. 3. – С. 82-95.
3. В кн.: История Узбекской ССР, т. II. Ташкент: Фан, 1968, статьи: Города и селения Узбекистана, с. 122-137; Ремесленное производство, с. 174-201; Бытовые условия жизни народных масс, с. 491-510.
4. Сухарева О.А. Уникальные образцы среднеазиатской одежды XVII в. // Сборник МАЭ. – Т. XXVI. – Л., 1970. – С. 101-112.
5. Сухарева О.А. К вопросу о литье металлов в Средней Азии // Занятия и быт народов Средней Азии. Среднеазиатский этнографический сборник, III. – Л.: Наука, 1971. – С. 147-167.
6. Сухарева О.А. В.В. Бартольд о кварталах Самарканда и новые представления об их значении и месте в жизни города // Бартольдовские чтения. – М., 1974. – С. 51-53.
7. Сухарева О.А. Очерки по истории среднеазиатских городов // История и культура народов Средней Азии. – М.: Наука, 1976. – С. 132-148.
8. Сухарева О.А. Традиция семейно-родственных браков у народов Средней Азии (в порядке дискуссии) // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1978. – С. 118-131.
9. Сухарева О.А. Вопросы изучения костюма народов Средней Азии // Костюм народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. – М.: Наука, 1979. – С. 3-13.

Rajabov B.B. Nomoddiy madaniy merosning tinchlikni ta'minlashdagi o'rni.	448
Namazov A.T. 20-yillarning oxiri – 40-yillarning boshi O'zbekistonning tarixiy-madaniy rivojlanishida o'z xususiyatlariga ega alohida bir tarixiy davr.	451
Rasulova F. O'zbek yog'och o'ymakorligi noyob hunarmandchilik turi.	456
Ravshanov A.U. Yog'ochga bitilgan san'at (O'zbekiston davlat san'ati muzeyi misolida).	459
Rajabov S.S. Akademik B.Ahmedov tadqiqotlarining X – XI asrlar Buxoro tarixini o'rganishda tutgan o'rni.	463
Gapparov B.N. Nomoddiy madaniyatni saqlashda arxitektura loyihalash va muhandislik grafikasining ahamiyati.	467
To'raeva G.B. Etnografik meros va muzeyshunoslik: O.A. Suxareva tadqiqotlarida urf-odatlar, an'analar va kashtachilik san'ati tahlili.	471
Джуроев Ш.Ш. Отражение образа Бухары в художественных и документальных фильмах.	478

4-SHO'BA. MUZEYLAR IMKONIYATI CHEKLANGANLAR UCHUN LOYIHALAR KESIMIDA VA YOSH MUZEYSHUNOSLAR MINBARI. 482

Gapparov B.N. Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun inklyuziv muzey arxitekturasini loyihalashda muhandislik grafikasining o'rni va vizual yechimlarning ahamiyati.	482
Asadov M. O'. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish: xorijiy tajriba.	485
Mamatxonova M.K. Moddiy merosni saqlashda innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.	491
Abdullaxo'jayeva Yu.A. Xudoyorxon o'rdasi: o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prik.	494
Mirfozilova M. Muzeylar faoliyatini yoritishda ilmiy-metodologik izlanishlar (PR, ilmiy nashrlar)	497
Axmedova M. O'zbekistonda Turizm tarixi muzeyini tashkil etish istiqbollari.	502
Boboqulov O.A. Murotova M. Muзейshunoslikning rivojlanish omillari: muammo va yechimlari.	507
Абдурахманова С.О. Нематериальное культурное наследие как важное звено культурной памяти: лингвистический аспект.	511
Muslyumova S.I. The modern nature of museum-tourism cooperation.	515
Ravshanova M.K. Muzeylar – milliy xotira va ma'naviy meros xazinasini.	518
Usmonov N.E., Mamasaidova R.Q. Muzeylar – xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy merosini asrovchi maskan.	522

**O‘ZBEKISTON O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR
AKADEMIYASI**

O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI

**MUZEYSHUNOSLIK XXI ASRDA:
TADQIQOTLAR, AN‘ANALAR VA INNOVATSIYA**
xalqaro ilmiy - amaliy konferensiya
TO‘PLAMI
(2025-yil 20-oktabr)